O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika – matematika fakulteti

“Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi

Cho’lliyev Shohruh Ibadullayevich

JAVA DASTURLASH TILIDA SATR VA FAYL OQIMLARI BILAN ISHLASH BO’YICHA USLUBIY QO’LLANMA

5480100-“Amaliy matematika va informatika” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko`rildi va himoya qilishga ruxsat berildi”
Kafedra mudiri.
_____ dots.T.B.Boltayev
«_____» _____2015 y.

Ilmiy rahbar _____ dots.O.I. Jalolov
“_____” _____ 2014y.
Taqrizchi _____ katta o’qit. T. Sohibov
“_____” _____ 2015 y.

“Himoyaga ruxsat berildi”
Fakultet dekani _____prof.Sh.M.Mirzayev
“_____” _____ 2015-y.

Buxoro – 2015 yil

MUNDARIJA

KIRISH

I.BOB. JAVA DASTURLASH TILINING SINTAKSISI VA ASOSIY OPERATORLAR.

1.1. Java dasturlash tilining sintaksisi. Ma’lumotlar tiplari……..

1.2. Java dasturlash tilida asosiy operatorlar va standart funksiyalar……

1.3. Java dasturlash tilida boshqarish operatorlari…….

II.BOB. JAVA DASTURLASH TILIDA SATR VA FAYLLAR OQIMI.

2.1. Java dasturlash tilida satr oqimi va ular ustida amallar……

2.2. Java dasturlash tilida fayl oqimi va ular ustida amallar.....

2.3. Ma’lumotlarni faylda yozish va o’qish…….

XOTIMA……

ADABIYOTLAR RO’YXATI……...

KIRISH

O’zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlarini dadil qo’yayotgan hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas.

Vatanimizning kelajagi xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o’sib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimida tub o’zgarishlar sodir bo’ldi. Jamiyat taraqqiyotini yoshlar hayotida ishlab chiqarish milliy hamda umuminsoniy munosabatlarda zamonaviy qarash imkonyatlari kengaydi. Yoshlar ta’lim tarbiyasi bilan mashg’ul bo’ladigan ijtimoiy institutlar son va sifat jihatdan o’sdi. Davlat standartlari tanlanib, pedagogik amaliyotda tadbiq etila boshlandi. Mustaqillik yillarida axborot texnologiyalari sohasida juda katta o’zgarishlar yuz bermoqda, shu bilan bir qator bu yoshlarga keng imkonyatlar yaratilmoqda. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axbarot texnologiyalari har yerda jadallik bilan kirib kelmoqda va bilimlarni oshishi jamiyat a’zolarini o’z ustlarida ko’proq ishlashga yangi-yangi o’zgarishlar bilan undashga olib kelmoqda.

Mustaqil respublikamizda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy o’zgarishlar Oliy ta’lim tizimida ham o’z aksini topmoqda.

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari kirib bormagan soha deyarli uchramaydi. Kompyuter texnologiyalardan nafaqat hisoblash ishlarini olib borish uchun balki, hayotga tadbiq qilinadigan dasturiy tizimlar, rasm va video tasmalarni qayta ishlovchi, katta hajmli ma’lumotlarni o’zida saqlovchi dasturlar yaratish, elektron tijorat uchun ham foydalaniladi. So’nggi yillarda kompyuter va uning dasturiy ta’minotiga bo’lgan talab va qiziqishlar ortib bormoqda. Bu esa o’z navbatida dasturchidan katta izlanish va mahoratni talab qiladi.

Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor berilmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimovning 2001 - yil may oyida Oliy Majlisning 5-sessiyasida so’zlagan nutqida axborot texnologiyalari va kompyuterlarni jamiyat hayotiga,

kishilarning turmush tarziga, maktab va oliy o'quv yurtlariga jadallik bilan olib kirish g'oyasi ilgari surilgan edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda "kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish", shuningdek, "Internetning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash" dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari qabul qilindi. 2002 yil 30 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni va uning ijrosini amalga oshirish yuzasidan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida strategik ustuvorlikni amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlarni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi "2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi " to'g'risidagi qarori e'lon qilindi.

Yangi axborot – kommunikatsion texnologiyalari hozirgi vaqtda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun yangi axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakalarga ega bo'lishi, hamda yangi information texnika va texnologiya asoslarini uning ertangi kuni, rivoji to'g'risidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Zamonviy hisoblash texnikasi va information texnologiyalarning kun sayin rivojlanib, jamiyatning esa tobora informatsiyalashib borishi sababli, uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bosqichlariga informatika, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish bo'yicha bir qator o'quv fanlari kiritilgan.

O`zbekiston Respublikasi demakratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo`lidan borayotgan bir paytda ta`lim sohasida amalgam oshirilayotgan

islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdir.

Axborot jamiyatni rivojlantiruvchi va uning taraqqiyotiga asos bo'luvchi muhim vosita hisoblanadi. Shu kabi axborot insoniyat tarixida eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lsa, jamiyatni kompyuterlashtirish esa iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurishga asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Oxirgi davrda axborotli muhitda katta o'zgarishlar bo'lib bormoqda. Ana shu o'zgarishlar qog'ozsiz texnologiya zarurligini keltirib chiqardi. Bu esa o'z navbatida EHM ning yanada keng rivojlanishiga sabab bo'ldi. Kompyuterlashtirish texnik muammolarni o'z ichiga olsa, axborotlashtirish kompleks jarayon bo'lib, u jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Kompyuterlar uning texnik asosinigina tashkil etadi xolos.

Respublikamizda viloyatlar, shaharlar, tumanlarga qarashli korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlanib, ular maxsus qurilmalar (telefon tarmog'i, modem va boshqalar) yordamida axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

XX asr o'rtalariga kelib tezkor mashina mexanizmlaridan foydalana boshlandi. Murakkab texnika va texnologiyalar o'ylab topildi. Ko'pgina masalalarni hal qilish jarayonida axborot hajmi behisob bir majmuaga aylandi, hamda bu axborotlarni yig'ish va uzatish vositalarini yaratish, ularni vaqtida qayta ishlab, boshqarish uchun zarur bo'lgan choralarni belgilab chiqish kerak bo'ladi. Ko'pchilik vazifalarni bajarishda boshqarish jarayonini takomillashtirish, axborot tizimini joriy etish, mutaxasislarni kompyuterda ishlashga o`rgatish muhim ahamiyatga ega. Undan tashqari biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida juda katta ishlar olib borish lozim.

Mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyati. JAVA dasturlash tili obektga mo'ljallangan dasturlash tili hisoblanadi. Juda ko'p murakkab masalalarni hal qilishda albatta fayl oqimlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Ushbu ishda fayllar ustida bajariladigan barcha amallar keltirilgan. Bu ishning dolzarb ekanligini ko'rsatadi. JAVA dasturlash tilining ahamiyati shundaki bu til sistema tanlamaydi, windowsda ishlayotgan dastur boshqa sistemalarda ham ishlay oladi.Ish uslubiy qo'llanma ko'rinishda tayyorlanadi. Bu juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Jetbrains IntelliJ IDEA muhitida, dasturlash tili. Zamonaviy kompyuter.

Ishning maqsadi va vazifasi. JAVA dasturlash tili yordamida fayllar bilan ishlash, ular ustida bajariladigan amallarni misollar yordamida yoritib berish va o'zbek tilida uslubiy qo'llanma tayyorlash.

Tadqiqot uslubi va uslubiyoti. Mavjud adabiyotlarni o'rgangan holda kerakli natijalarga erishish va ularga asoslangan holda o'zbek tilida uslubiy qo'llanma tayyorlash.

Olingan asosiy natijalar. Talablar yoki foydalanuvchilar mustaqqil o'rganishlari uchun o'zbek tilida JAVA dasturlash tilida asosiy operatorlar,satrlar va fayllar oqimi bilan ishlash bo'yicha uslubiy qo'llanma tayyorlandi.

Natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. O'zbek tilida JAVA dasturlash tilida asosiy operatorlar,satrlar va fayllar oqimi va ular ustida bajariladigan amallar bo'yicha uslubiy qo'llanma qilinmagan.

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi. Qo'llanish sohasi. Xulosa va takliflar. Ushbu qo'llanmadan dasturlash asoslari fanidan o'quv darslarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari JAVA dastrulash tilini mustaqil o'rganuvchilar ham ushbu uslubiy qo'llanmadan foydalanishlari mumkin.

Ishning hajmi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, 2 ta bob, har bir bobning qisqacha xulosasi, adabiyotlar ro'yxati, xotima va ilovalardan iborat bo'lib, 60 betda bayon qilingan. Kirish qismi 5 betdan iborat, tushuntirish qismi

35 betdan iborat unda 3 ta rasmdan foydalanildi. Bitiruv malakavi ishida 7 ta adabiyotdan foydalanildi.

I-BOB

JAVA DASTURLASH TILINING SINTAKSISI VA ASOSIY OPERATORLAR.

1.1. JAVA DASTURLASH TILINING SINTAKSISI. MA'LUMOTLAR TIPLARI

JAVA tilida tuziladigan dastur *.java faylida yoziladi – bu shunday faylki u bitta yoki bir nechta sinflardan tashkil topgan bo'ladi. JAVA translyatori shunday taxmin qiladiki: programmaning saqlanish matni kengaytmasi *.java faylda saqlanadi. Tranlyasiya jarayoni natijasida har bir sinfning kodi alohida faylida yozib qo'yiladi. Birinchi o'rinda biz bu bobda "Hello World" programmasini ishga tushiramiz .Bundan keyin esa mantiqiy elementlarni ko'rib chiqamiz. Bob oxirida esa siz JAVA dasturlash tilida mustaqil ishlash haqida yetarlicha ma'lumot olasiz.

Hello World

Mana sizning birinchi JAVA programmangiz:

```
public class HelloWorld {
  public static void main (String args [])
  { System. out. println ("Hello World");  } }
```

Java tili barcha programma kodi sinflar ichida qayd etilishini talab qiladi. Yuqorida aytib o'tilgan matn misollarni HelloWorld.java da yozib qo'yish lozim. Fayl nomidagi harflarni uning tarkibidagi sinf nomi bilan bir xilligini tekshirish zarur agar sinf nomi public deb e'lon qilingan bo'lsa.

Translyator HelloWorld.class faylini mustaqil misol dagi bayt-kodli prosessordan taqdim etiladi.Olingan kodni ishga tushirish uchun Java tilida bajariladigan vaqtda ega bo'lmoq zarur.Unga bajariladigan yangi sinflarni yuklamoq kerak.Shuni aytib o'tish kerakki bu yerda sinf nomi haqida so'z bormoqda fayl nomi haqida emas.

```
C: > java HelloWorld
```

Hello World

Albatta Hello World misoli oddiy,lekin shunday oddiy misol ham Java tilini endi o'rganmoqchi bo'lganlar uchun qo'rqinchli bo'lishi mumkin,aksincha u sizni ko'plab ma'lumotlar bilan tanishtiradi.Kelinglar diqqat bilan birinchi misolni qatorma-qator ko'rib chiqamiz.

public class HelloWorld {

Bu qatorda class so'zi ishlatilgan u translyatorga yangi sinfni ta'riflashga tayyorligini bildiradi.

Sinfning to'liq ta'rifini birinchi qatordagi figurali qavs va beshinchi qatordagi yopiladigan qavs oralig'ida joylashgan.Figurali qavs Java tilida xuddi C va C++ tilidagidek qo'llaniladi.

public static void main (String args []) {

Bir ko'rishda bu misol murakkab tuyulishi mumkin.Gap shundaki Java tilida global funksiyalar mavjud emas.Bunday misol kitobning birinchi qismining ko'plab betlarida uchratish mumkin, kelinglar ikkinchi qatorning har bir elementini ko'rib chiqamiz.

Public

Qatorni elementlarga ajratayotganda public kalit so'ziga duch kelamiz.Bu kirish modifikatori bo'lib u bilan programist xoxlagan metodini qo'llashi mumkin.Bunday paytda public kirish modifikatori main metodi barcha sinflar uchun qulay.

Static

Keyingi kalit so'z –static. Bu so'z yordamida metodlar e'lon qilinadi.

Static so'z ishlatilgan e'lonlar metodi faqatgina local va statistic misollar bilan ishlashi mumkin.

Void

Siz bu yerda ko'pincha metodlarga muxtojlik sezishingiz mumkin.Bu holatda ekranga faqat qatorni chiqaramiz, main metodini natija qaytarishi shart emas.

Aynan shuning uchun ham void modifikatori ishlatiladi.

Main

Bu metodning nomi . Sinfni ishlatish uchun albatta main metodi bo'lishi kerak.

System. out. prlntln("Hello World!");

Bu qatorda out ob'ektining println metodi bajariladi.Out ob'ekti OutputStream sinfida e'lon qilingan.Figurali qavs to'rtinchi qatordagi main metodi e'lonidan so'ng yopiladi,xuddi shunday qavs beshinchi qatorning Hello World sinfi e'lonidan so'ng qo'llaniladi.

Leksik negiz.

Java tilini minimal darajada o'rganib chiqdik,endi esa orqaga qaytib tilning umumiy strukturasini ko'rib chiqamiz.

Java programmasi – bu probellar,kalit so'zlar,operatorlar,identifikatorlar va bo'luvchilar to'planmasi.

Probellar

Java – bu matn programmalarini formatlashga ruxsat beruvchi til.Programma yaxshi ishlashi uchun hech qanday xususiylik yo'q.Masalan Hello World sinfini ikki qatorda yoki boshqa xoxlagan uisulda yozib olish mumkin.

Komentariyalar

Komentariyalar programma kodi bilan hech qanday aloqasi bo'lmasada u ko'ribchiqiladigan matnning bir bo'lagi hisoblanadi. Komentariylar uch xil ko'rinishda bo'ladi.

1. Bir qatorda komentariy.
2. Bir necha qatorda komentariy.
3. Dokumentlashtirish komentariysi.

Bir qatorni egallovchi komentariylar

// belgisi bilan boshlanib qator oxirida tugaydi.Bunday kommentariylar ko'rinishi alohida qatordagi kodlar uchun joylashtirishgaqulay hisoblanadi.

a = 42; // a o'zgaruvchiga 42 ni ozlashtirish

Aniqroq ko'rib chiqish uchun bir necha qatorda joylashtirilgan komentariylardan foydalanishimiz mumkin.Komentariylar matnini /* belgisi bilan boshlab */ bilan tugatamiz.

```
/*
 Bu kod ozgina o'ylantiruvchi
Tushuntirishga harakat qilaman
  …..
*/
```

Uchinchi asosiy komentariylar formasi ko'proq javadoc programmasiga moslashtirilgan.Komentariylarning bu turi quidagicha:e'londan avval ochiq sinfda joylashtirish uchun /** belgisidan boshlaymiz.Bu komentariy oddiy komentariy singari */ belgisi bilan tugallanadi.

Javadoc programmasi @ belgisi bilan boshlanadigan dokumentlashtiradigan komentariylarni ajrata oladi.

Masalan :

```
/**
*  Bu sinf ajoyib ishlarni qilishga qodir.
*  Maslaxatimiz shundaki bu sinfni ochiqchasiga ko'rib chiqmoqchi bo'lsangiz uni baza sifatida olishingiz mumkin.
*  @see Java. applet. Applet
*  ©author Patrick Naughton
*  @version 1. 2
*/
```

Kalit so'z

Kalit so'z bu – maxsus idenfikator bo'lib, u java tilida turlarni,modnfikatorlarni terish va programmani boshqarishda foydalaniladi.Bu so'zlardan faqat tayinlangandagina foydalanish mumkin.Ulardan indifikatorlar,sinflar va metodlar sifatida foydalanib bo'lmaydi.

1.1-jadval. Kalit so'zlar.

Abstract	boolean	Break	Byte	byvalue
case	cast	Catch	Char	class
const	continue	default	Do	double

else	Extends	false	final	finally
float	For	Future	generic	goto
if	implements	import	inner	instanceof
Int	interface	Long	native	new
null	operator	outer	package	private
protected	Public	Rest	return	short
static	super	switch	syncronized	this
throw	throws	transient	true	try
var	void	volatile	while	
clone	equals	finalize	getClass	hashCode
notify	notifyAll	toString	wait	

Identifikatorlar

Identifikatorlar metodlarni,sinflarni,obetklarni nomlashda foydalaniladi. Identifikator sifatida harflar,sonlar va belgilardan foydalaniladi.

Butun literallar

Butun sonlar – bu ko'pincha oddiy programmalarda uchraydi.Xoxlagan butun soningiz masalan 1,2,3,42 bu butun literallar.Bu misolda o'nlik sonlar ishlatilgan.O'nlik sonlardan tashqari sakkizlik o'n oltilik sonlar ham literallar sifatida qo'llaniladi.O'rtacha o'nlik sonlar noldan boshlana olmaydi,shuning uchun programmalarda nol to'qqiz (09) qo'llaniladi.

Nuqtali literallar.

Nuqtali literallar kasrli o'nlik sonlarni anglatadi.Ularni oddiy formatda yozish mumkin.Oddiy formatda raqam bir qancha o'nlik sonlardan iborat.Sonlardan so'ng o'nlik nuqtasi keyin esa kasr ko'rinishdagi o'nlik sonlar. Masalan 2.0, 3.14159 va 6667.Bu standart formatda yozilgan o'nlik sonlar.

Mantiqiy literallar.

Mantiqiy literalning ikki ma'nosi mavjud:-true (haqiqiy) va false (yolg'on).True va False ning mantiqiy ma'nosi hech qanday raqamli

ko’rinishda namoyon bo’lmaydi. JAVA da true kalit so’zi birga teng emas, false ham 0 ga teng emas.

Belgili literallar.

Javada belgilar - bu UNICODE belgilar jadvalining indeksi hisoblanadi.

Amal	Tavsif
\ddd	Simvolning oldingi nomi (ddd)
\uxxxx	
\’	Ajratish belgisi
\”	Qo’shtirnoq
\\	
\r	
\n	Satrni ko’chirish(line feed, new line)
\f	Sahifani ko’chirish (form feed)
\t	
\b	Orqaga qaytish (backspace)

TIPLAR.

Bu bobda biz Java tilining barcha muhim turlari bilan tanishib olamiz. Qanday ularni o’zlashtirish,turlar aralashmasining ifodalanishini o’rganib chiqamiz.

ODDIY TIPLAR.

Javada sakkizta oddiy tip mavjud – byte,short,int,long,char, float,double va boolean.Ularni to’rt turga ajratish mumkin.

1. Butun.Ularga byte, short, int, long turlarni kiradi.Bular belgili butun sonlar uchun mo’ljallangan.
2. Nuqtali turlarga – float va double tegushli.Ular kasr sonlarni ifodalovchi sonlarni taqdim etadi.
3. Char turi.Bu tur belgilar jadvali elementlarini ifodalovchi tur hisoblanadi.
4. Boolean turi.Bu mantiqiy kattaliklarni tasvirlovchi maxsus tur hisoblanadi.

BUTUN SONLAR.

Java tilida belgisiz sonlar mavjud emas.Bu tilning barcha sonli turlari belgili.byte turi o'n oltili songa teng bo'lsa 0*80 son -1 ga teng bo'ladi.

BYTE

Byte – turi sakkiz bitli belgili tur hisoblanadi.Uning chegarasi -128 dan 127 gacha.U ko'proq setdan yoki fayldan olingan bitlar to'plamini saqlaydi.

```
byte b;
byte c = 0x55;
```

SHORT

Short – bu o'n olti bitli belgili tur.Uning chegarasi -32768 dan 32767 gacha.Bu tur Javada juda kam uchraydi.

```
short s;
short t = Ox55aa;
```

INT

Int turi – bu 32 – bitli belgili butun sonni tasvirlaydi.Bu turning chegarasi -2147483648 dan 2147483647 gacha.Ko'pincha bu tur butun sonlarni asrash uchun foydalaniladi.Bu tur hisoblagichlarni obrabotka qilish jarayoniga juda mos keladi.

Yaqin yillar orasida bu 32 bit 64 bitga to'laqonli javob beradi.

```
int i;
int j = 0x55aa0000;
```

LONG

Long turi 64 bitli butun sonlarni tasvirlaydi.Uning chegarasi yetarlicha ulkan.

```
long m;
long n = Ox55aa000055aa0000;
```

pastda butun sonlarning turlari,ularning chegarasi,razryadi jadval shaklida ko'rsatilgan.

Nomi	Razryadi	Chegarasi

Long	64	-9, 223, 372, 036, 854, 775, 808… 9, 223, 372, 036, 854, 775, 807
Int	32	-2, 147, 483, 648… 2, 147, 483, 647
Short	16	-32, 768...32, 767
Byte	8	-128…127

Nuqtali sonlar kasr sonlar ishlatiladigan misollar uchun kerak bo'ladi. Java da float va double operatorlari bilan ishlash uchun standart ko'rinishida jadval tuzilgan.

Nomi	Razryadi	Chegarasi
double	64	7e-308.. 1. 7e+ 308
float	32	4e-038.. 3. 4e+ 038

Float

Birdaniga aniqlik kiritish uchun float kalit so'zidan foydalaniladi.Ma'no-mazmunini saqlash uchun 32 bit zarur bo'ladi.

```
float f;
float f2 = 3. 14F; // barcha literallar double
```

Double

Double ma'no-mazmunini saqlash uchun 64 bit zarur bo'ladi.

```
double d;
double pi = 3. 14159265358979323846;
```

Tipni keltirish.

Tipni keltirish(type casting) – C++ ning noqulay xossalaridan biridir,biroq bu xossa Java tilida ham saqlanib qolgan.Ba'zan shunaqa vaziyatlar yuzaga keladiki,sizda biror tipdagi kattalik mavjud,biroq uni boshqa tipdagi o'zgaruvchiga ta'minlashingiz kerak bo'ladi.Ba'zi tiplar uchun buni tipni keltirmasdan ham bajarish mumkin bo'lib,bunday hollarda tiplarni avtomatik

almashtirish haqida gapiriladi.Javada avtomatik almashtirish faqat shu holda mumkinki,agar aylantirish natijasida hosil bo'luvchi o'zgaruvchining sonlarni tasvirlash aniqligi boshlang'ich qiymatni saqlash uchun yetarli bo'lsa.Bunday almashtirish M: byte yoki short tipidagi o'xgaruvchi qiymatini yoki o'zgarmasni int tipiga o'tkazishda yuz beradi.Bu kengayish (widening) yoki oshirish(promotion) deb nomlanadi,sababi kichikroq razryaddagi tip kattaroq sig'imli tipgacha kengayadi. Int tipining o'lchami byte tipi diapazonidagi sonlarni sig'dirish uchun doim yetarlidir.Kattalikni muayyan tipga keltirish uchun shu kattalikdan oldin qavs ichiga olingan tip nomini yozish kerak.Quyida keltirilgan kod parchasida manba tipi (int tipidagi o'zgaruvchi)ni voris tipiga(byte tipidagi o'zgaruvchiga) keltirish namoyish etiladi.Agar bu amal chog'ida butun qiymat byte uchun mumkin bo'lgan diapazon chegarasidan oshib ketganda edi,u byte diapazoniga modul bo'yicha bo'lish orqali kuchaytirilardi.(modul bo'yicha songa bo'lish natijasi – bu shu songa bo'lishda olingan qoldiq)

```
int a = 100;
byte b = (byte) a;
```

Ifodalarda tipning avtomatik almashtirilishi

Ifodaning qiymatini hisoblayotgan chog'ingizda oraliq natijalarni saqlash uchun talab etiladigan aniqlik yakuniy natijani ifodalash uchun talab etiluvchi aniqlikdan katta bo'lishi kerak.

```
byte a = 40;
byte b = 50;
byte c = 100;
int d = a* b / c;
```

(a*b) oraliq ifoda qiymati byte uchun ruxsat berilgan diapazondan oshib ketishi mumkin.Shu sababli Java avtomatik ravishda ifodaning har ikki tarafining tipini int tipigacha shunday oshirdiki,(a*b) qiymati uchun joy yetarli bo'ladi.

Avtomatik tip almashtirish ba'zan kutilmagan xatolar haqida transyatorning xabar berishiga olib keladi. M: Quyida keltirilgan kod korrekt

ko’rinsada,translyatsiya fazasida xatolik haqida xabar beradi.Unda biz 50*2 qiymatni byte ozgaruvchiga joylashtirmoqchimiz 100 – byte tipida juda yaxshi joylashadi.Biroq natija tipining int ga avtomatik almashtirilishi natijasida translyatordan xatolik haqida xabarga ega bo’lamiz – sababi int ni byte ga ta’minlash chog’ida aniqlik yo’qotilishi mumkin.

```
byte b = 50;
b = b* 2;
```

^ Incompatible type for =. Explicit cast needed to convert int to byte. (= uchun mos kelmaydigan tiplik int ni byte ga oshkor keltirish zarur)

To’g’rilangan matn :

```
byte b = 50;
 b = (byte) (b* 2);
```

natijasida b ga 100 qiymat to’g’ri ta’minlanishiga olib keladi.

Agar ifodada byte,short va int tipidagi o’zgaruvchilar ishlatilsa,u holda to’lib ketmaslik uchun butun ifoda tipi avtomatik int tipiga o’tkaziladi.Agar ifodada hech bo’lmasa bitta o’zgaruvchii tipi long bo’lsa,butun ifoda tipi ham longgacha oshiriladi.Oxirida L (yoki l) belgisi bo’lmagan butun literallar (o’zgaruvchilar) ega bo’ladi.Agar ifodada float tipidagi o’zgaruvchilar qatnashsa,ifoda tipi floatga o’tkaziladi.Agar ifodada hech bo’lmasa bitta oprant double tipida bo’lsa,butun ifoda doublega keltiriladi .Jimlik holatida Java barcha qo’zg’aluvchan nuqtali literallarni double tipiga ega deb qabul qilinadi.Quyida keltirilgan dastur ifodadagi har bir kattalikning tipi har birar operatorning ikkinchi operandi bilan mos bo’lishi uchun qanday qilib oshirilishi ko’rsatilgan.

```
 class Promote {
public static void main (String args []) {
byte b = 42;
char c = 'a';
short s = 1024;
int i = 50000;
```

```
float f = 5.67f;
double d =.1234;
double result = (f* b) + (i/ c) - (d* s);
System. out. println ((f* b)+ "+ "+ (i / c)+ " - " + (d* s));
System. out. println ("result = "+ result);
}}
```

Belgilar.

Char tipi uchun ikki bayt xotira ajratiladi va u ixtiyoriy simvolni saqlaydi. Boshqacha qilib aytganda shu simvolning Unicode dagi kodini saqlaydi.Ammo bu qiymat bilan ixtiyoriy arifmetik operasiyalarni bajarish mumkin.Agar operasiyaning natijasi yana char tipida saqlansa u Unicode dagi qanqaydir kod deb tasavvur qilinadi.

Javada belgilarning tasviri uchun qatorda Unicode kodi ishlatilsa char tipining razryadi bu tilda 16-bitga teng.Unda o'n minglab belgilarni saqlash mumkin.Char turining chegarasi 0…65535.

Unicode bu o'nlab belgilar jamlanmasi.Uning tarkibiga – lotin,grek,arab alfaviti,kril alifbosi va yana ko'plab belgilar to'plami kiradi.

```
char c;
char c2 = Oxf132;
 char c3 = ' a';
 char c4 = '\n';
```

Pastda keltirilgan kodda biz bazali belgilarga butun sonlarni qo'shamiz.

```
int three = 3;
char one = '1';
 char four = (char) (three+ one);
```

Boolean tipi

Java tilida Boolean nomli mantiqiy ma'nolarni anglatuvchi oddiy tur mavjud.Bu tur ikki ma'noni anglatadi.

True (Haqiqat) va False (Yolg'on)

```
boolean done = false;
```

Oddiy tip deb shunday tipga aytiladiki uning qiymati bo'laklarga bo'linmaydi(ya'ni bo'lish ma'nosiz) bunday tiplar boshqa tiplarga asoslanmaydi.

Biz oddiy tiplarni barchasi bilan tanishib chiqdik,jumladan:butun sonlar, belgilar va mantiqiy ma'nolar.Yaxshisi barcha ma'lumotlarni bir yerga to'playmiz.

```
class SimpleTypes {
public static void main(String args []) {
 byte b = 0x55;
short s = 0x55ff;
 int i = 1000000;
long l = 0xffffffffL;
 char c = ' a' ;
 float f = .25f; double d = .00001234;
boolean bool = true;
System.out.println("byte b = " + b);
 System.out.println("short s = " +s);
 System.out.println("int i = " + i);
System.out.println("long l = " + l);
System.out.println("char c = " + c);
System.out.println("float f = " + f);
System.out.println("double d = " + d);
System.out.println("boolean bool = " + bool);
 }}
```

Bu programmani kiritgandan so'ng quyidagi natijani olamiz:

```
C: \> java SimpleTypes
 byte b = 85
 short s = 22015
int i = 1000000
 long l = 4294967295
```

char c = a

float f = 0.25 double

d = 1.234e-005

boolean bool = true

E’tibor bersangiz ayrim butun sonlar o’nlik sanoq tizimida namoyon bo’ladi,lekin biz ayrim sonlarni o’ oltilik sanoq tizimida kiritganmiz.

Massivlar.

Massiv tipi deb shunday murakkab tipga aytiladiki uning quymati bir nechta boshqa tipdagi qiymatlardan tashkil topgan ularning soni chekli hammasi bitta tipga tegishli va tartiblashtirilgan (nomerlangan).Bunday qiymatlar massivning elementlari deyiladi.Har bir element o’zining tartib nomeriga ega va bu nomer elementning massivdagi indeksi deyiladi.

Massiv turlarini e’lon qilishda to’rtburchak qavslardan foydalaniladi. Pastda ko’rsatilgan misolda month_days e’loni va uning int turning butun sonlar massivi turi keltirilgan.

int month_days [ ];

Demak month_days bu butun o’n ikkilik sanoq sistemasi sonlar jo’natmasi.

month_days = new int [12];

Pastda keltirilgan misolda yil oylarining tarkibidagi sonlarning elementlari massivi tuzilgan.

```
class Array { public static void main (String args []) {
 int month_days[];
month_days = new int[12];
 month_days[0] = 31;
 month_days[1] = 28;
month_days[2] = 31;
 month_days[3] = 30;
 month_days[4] = 31;
 month_days[5] = 30;
```

```
month_days[6] = 31;
 month_days[7] = 31;
 month_days[8] = 30;
 month_days[9] = 31;
 month_days[10] = 30;
 month_days[11] = 31;
System.out.println("April has " + month_days[3] + " days.");
} }
```

Zapuskdan so'ng programma aprel kunlari pastda ko'rsatilgan holda namoyon bo'ladi.

```
C: \> java Array
 April has 30 days.
```

Massivning inisiamuatori vergullar bilan ajratilgan iboralar ro'yxatini tashkil etadi va ifoda oxirida figurali qavs qo'yiladi.Vergullar massiv elementlarini bir – biridan ajratib turadi.Bunday paytda massiv qancha ma'no saqlashi kerak bo'lsa shuncha element ham saqlashi zarur bo'ladi.

```
class AutoArray {
 public static void main(String args[]) {
 int month_days[] = {31,28,31,30,31,30,31,31,30,31,30,31};
System.out.println("April has " + month_days[3] + " days.");
} }
```

Ko'p o'lchovli massiv.

Haqiqatdan ham Javada Haqiqiy ko'p misolli massiv mavjud emas.Lekin massivlarning massivi bor.Pastda ko'rsatib o'tilgan kodda double turi an'anaviy o'n olti elementdan tuzilgan matrissani tasvirlaydi.Bu matrissaning ichki realizasiyasi – double massivlarining massivi.

```
double matrix [][] = new double [4][4];
```

Keyingi kodning ko'rinishi ham xuddi shunday xotirani inisiallashtiradi.Bu tasvir matrissa haqiqatdan ham o'z ichiga massivlarni olganligini bildiradi.

```
double matrix [][] = new double [4][];
```

```
 matrix [0] = new double[4];
matrix[1] = new double[4];
 matrix[2] = new double[4], matrix[3] = { 0, 1, 2, 3 };
```

Keyingi misolda double turi elementli to’rtga to’rt hajmli matrissa tuziladi,uning diagonal elementi birliklar bilan to’ldiriladi qolgan elementlar esa nolga teng bo’ladi.

```
class Matrix {
 public static void main(String args[]) { double m[][];
m = new double[4][4];
m[0][0] = 1;
 m[1][1] = 1;
 m[2][2] = 1;
m[3][3] = 1;
System.out.println(m[0][0] +" "+ m[0][1] +" "+ m[0][2] +" "+ m[0][3]);
System.out.println(m[1][0] +" "+ m[1][1] +" "+ m[1][2] +" "+ m[1][3]);
System.out.println(m[2][0] +" "+ m[2][1] +" "+ m[2][2] +" "+ m[2][3]);
System.out.println(m[3][0] +" "+ m[3][1] +" "+ m[3][2] +" "+ m[3][3]);
 }
}
```

Bu programmani kiritib quyidagi natijani olamiz.

```
C : \> Java Matrix
 1 0 0 0
 0 1 0 0
 0 0 1 0
 0 0 0 1
```

E’tibor bering – agar siz element nolga teng bo’lishini xoxlasangiz,uni inisiallashtirishingiz shart emas,bu avtomatik tarzda sodir bo’ladi.

Pastda ko’rsatilgan misolda ishlangan qator nomeri va ustun nomeri ifoda etilgan matrissa elementlari ko’rsatilgan.E’tiboringizni qarating massiv inisiali ichida nafaqat literallarni balki ifodalarni ham ishlatish mumkin.

```
class AutoMatrix {
public static void main(String args[]) { double m[][] = {
{ 0*0, 1*0, 2*0, 3*0 }, { 0*1, 1*1, 2*1, 3*1 },
 { 0*2. 1*2, 2*2, 3*2 }, { 0*3, 1*3. 2*3, 3*3 } }:
 System.out.println(m[0][0] +" "+ m[0][1] +" "+ m[0][2] +" "+ m[0][3]);
System.out.println(m[1][0] +" "+m[1][1] +" "+ m[1][2] +" "+ m[1][3]);
System.out.println(m[2][0] +" "+m[2][1] +" "+ m[2][2] +" "+ m[2][3]);
System.out.println(m[3][0] +" "+m[3][1] +" "+ m[3][2] +" "+ m[3][3]); } }
```

Bu programmani joylashtirib quyidagi natijani olasiz.

```
C: \> Java AutoMatrix
0 0 0 0
0 1 2 3
0 2 4 6
0 3 6 9
```

Endi siz Java tilidagi sakkiz oddiy tur bilan qanday ishlashni bilib oldingiz. Siz bu turlarning ob'ektlarini tuzishni va ularning har birining razryadini ko'rib chiqdingiz. Siz ularning qanday arifmetik ayirmalarga to'g'ri kelishini bilib oldingiz.

1.2. JAVA DASTURLASH TILIDA ASOSIY OPERATORLAR VA STANDART FUNKSIYALAR

Operatorlar bu – bir yoki ikkita argument ustidagi harakat demakdir. Sintaksik operatorlar indifikator va literallar orasida ko'proq joylashtiriladi.Ularning ro'yxati uchinchi jadvalda ko'rsatilgan.

+	+=	-	-=
*	*=	/	/=
|	|=	^	^=
&	&=	%	%=
>	>=	<	<=
!	!=	++	--

>>	>>=	<<	<<=
>>>	>>>=	&&	||
==	=	~	?:
	Instanceof	[ ]	

Bo’luvchilar (Ajratuvchilar)

Faqat bir nechta belgilar guruhi Java programmasida nomsiz qolgan.Bu programma kodiga tashqi tomondan ta’sir qiluvchi oddiy bo’luvchilar.

Belgi	**Nomi**	**Qayerlarda ishlatiladi**
( )	Aylana qavs	Metod chaqirishda va e’lonlardagi parametrlar ro’yxatini ajratib turadi.Shu jumladan operasiya topshiriqlarida ishlatiladi.
{ }	Figurali qavs	Sinflardagi kod blokini chegaralab turadi.Metod local miqyosida qo’llaniladi
[ ]	Kvadrat qavs	E’londan massivlarda ko’proq qo’llaniladi.Aloxida elementlar massivi ham shu jumladandir.
;	Nuqtali vergul	Operatorlarni bo’lmaydi. (ajratadi)
,	Vergul	Indikatorlarni ajratib operatorlarni bog’lash vazifasini o’taydi
.	nuqta	Sinf nomlarini va paket nomlarini ajratadi.

Operatorlar.

Java tilidagi operatorlar – bu maxsus belgilar bo’lib,translyatorga sizning ayrim operasiya o’tkazuvchilar bilan operasiya o’tkazmoqchi ekanligingiz haqida ma’lumot beradi.Ayrim operatorlar bitta operasiya o’tkazuvchi bo’lishini talab etadi.

Ular unarli deb nomlanadi.

Operatorlar operasiya qiluvchilar oldida qo’yilsa ular prefiksli deb nomlanadi,keyin qo’yilsa esa postfiksli operatorlar deyiladi.Ko’pchilik operatorlarni ikki operasiya o’tkazuvchilar orasiga qo’yadi,ular infiksli operatorlar deb nomlanadi.

Javada 44 ta operatorlar mavjud.Ularni 4 sinfga ajratish mumkin. Arifmetik,bitli,tenglashtiruvchi operatorlar va mantiqiy operatorlar.

Arifmetik operatorlar.

Arifmetik operatorlar xuddi algebradagidek ayrim vazifasini bajaradi. Kirish huquqiga ega bo’lgan operasiya o’tkazuvchilar raqamli turlarga ega bo’lmoqlari lozim.Masalan bu operatorlar mantiqiy tiplar bilan ishlay olmaydi,char tipi bilan esa ishlay oladi.

OPERATOR	NATIJA	OPERATOR	NATIJA
+	Qo’shish	+ =	Qoshish bilan o’zlashtirish
-	Ayirish	-=	Ayirish bilan o’zlashtirish
*	Ko’paytirish	*=	Ko’paytirish bilan o’zlashtirish
/	Bo’lish	/=	Bo’lish bilan o’zlashtirish
%	Modul bo’yicha bo’lish	%=	Modul bo’yicha bo’lish bilan o’zlashtirish
++	Inkrement	--	Dekrement

TO’RT ARIFMETIK HARAKAT.

Pastda opereatorlarning ustida ish olib boorish oddiy programmasi keltirilgan.

```
class BasicMath  { public static void int a = 1 + 1;
 int  b = a *  3;
 main(String args[]) {
 int c = b / 4;
int d = b - a;
 int e = -d;
System.out.println("a = "  +  a);
System.out.println("b = "  +  b);
 System.out.println("c = "  +  c);
System.out.println("d = "  +  d);
System.out.println("e = "  +  e);
 } }
```

Bu programmani ishga tushirgandan so'ng siz quyidagi natijani olishingiz kerak.

```
C: \> java BasicMath
a = 2    b = 6    c = 1
d = 4    e = -4
```

MODUL BO'YICHA AJRATUVCHI OPERATORLAR.

Modul bo'yicha ajratuvchi operatorlar yoki mod operatori % belgisi bilan ajratiladi.Bu operator birinchi operatsiyada ajratishdan qolgan qoldiqni ikkinchi operatsiyaga qaytarish vazifasini bajaradi.C++ funksiyasidan farqli o'laroq bu programma faqat butun sonlar bilan cheklanib qolmaydi.Pastda ko'rsatilgan programma shu operatorni tasvirlaydi.

```
class Modulus {
 public static void main (String args []) {
 int x = 42;
double y = 42.3;
```

```
System.out.println("x mod 10 = " + x % 10);
System.out.println("y mod 10 = " + y % 10);} }
```

Bu programmani ishga tushirgandan so’ng siz quyidagi natijani olishingiz kerak.

```
C:\> Modulus
 x mod 10 = 2
 y mod 10 = 2.3
```

O’ZLASHTIRISH ARIFMETIK OPERATORLARI.

Har bir arifmetik operatorning operatsiya yaratish jarayonida bir vaqtda o’zlashtirish formasi mavjud.

Pastda shu operatorning tasvirlash jarayoni keltirib o’tilgan.

```
class OpEquals {
public static void main(String args[]) {
 int a = 1; int b = 2;
 int c = 3;
a += 5;
b *= 4;
c += a * b;
c %= 6;
System.out.println("a = " + a);
System.out.println("b = " + b);
 System.out.println("c = " + c);
} }
```

Mana bu esa shu programmani natijasi hisoblanadi.

```
C:> Java OpEquals
a = 6
b = 8
c = 3
```

INKREMENT VA DEKREMENT.

Increment va decrement nomli ikki operator turi mavjud.Bular operatsiya birligidagi qo’shuv va ayiruvning qisqartirilgan varianti hisoblanadi.Bu operatorlarning qulay tomoni shundaki prifiks va postfiks formasida ham qo’llab bo’ladi.Keyingi misolda increment va decrement operatorlarining qo’llanishi ko’rsatilgan.

```
class IncDec {
 public static void main(String args[]) {
 int a = 1;
 int b = 2;
int c = ++b;
int d = a++;
c++;
System.out.println("a = " + a);
System.out.println("b = " + b);
System.out.println("c = " + c);
System.out.println("d = " + d);
} }
```

Programmadan olingan natija:

```
C:\ java IncDec
a = 2
b = 3
c = 4
d = 1
```

BUTUN SONLI BUL OPERATORLARI.

long, int, short, char va byte - butun sonlar turlari uchun qo’shimcha operatorlar turi ajratilgan.Ular bilan alohida bitlarning holatini tekshirib turish mumkin.Jadvalda shunday operatorlar ko’rsatilgan.Arifmetik bitlar operatori har bir bit bilan mustaqil kattalikda ishlashi mumkin.

OPERATOR	NATIJA	OPERATOR	NATIJA

~	Bitli inkor qilish (NOT)		
&	Bitli va (AND)	&=	Bitli va (AND) o'zlashtirish bilan
|	Bitli yoki (OR)	|=	Bitli yoki (OR) o'zlashtirish bilan
^	Bitli o'chirish yoki (XOR)	^=	Bitli o'chirish yoki (XOR) o'zlashtirish bilan
>>	O'ngga yurmoq	>>=	O'ngga yurmoq o'zlashtirish bilan
>>>	Nollar bilan to'ldirilgan o'ngga yurish	>>>=	Nollar bilan to'ldirilgan o'ngga yurish o'zlashtirish bilan
<<	Chapga yurish	<<=	Chapga yurish o'zlashtirish bilan

MANIPULYAR BITLAR BILAN PROGRAMMALARGA MISOLLAR.

Pastda ko'rsatilgan jadvalda har bir bitdagi operatorning o'z operandlari kombinatsiyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ishtiroki ko'rsatilgan. Jadvaldan keyin keltirilgan misol bu operatorning Java tilidagi dasturda ishlatilishini ko'rsatadi.

A	B	OR	AND	XOR	NOT A
0	0	0	0	0	1
1	0	1	0	1	0
0	1	1	0	1	1
1	1	1	1	0	0

```
class Bitlogic {
```

```
public static void main(String args []) {
String binary[] = { "OOOO","0001","0010","0011","0100","0101",
 "0110","0111",   "1000","1001","1010","1011","1100","1101","1110","1111"};
int a = 3;  // 0+2+1 или двоичное 0011
int b = 6;  // 4+2+0 или двоичное 0110
int c = a | b;
int d = a & b;
int e = a ^ b;
int f = (~a & b) | (a & ~b);
int g = ~a & 0x0f;
System.out.println(" a = " + binary[a]);
System.out.println(" b = " + binary[b]);
System.out.println(" ab = " + binary[c]);
System.out.println(" a&b = " + binary[d]);
System.out.println(" a^b = " + binary[e]);
System.out.println("~a&b|a^~Ь = " + binary[f]);
System.out.println(" ~a =  " + binary[g]);
} }
```

Mana bu esa shu programmani natijasi hisoblanadi:

```
C: \> Java BitLogic
a = 0011
b = 0110
a | b = 0111
a & b = 0010
a ^ b = 0101
 ~a & b | a & ~b = 0101
~a = 1100
```

O’NGGA VA CHAPGA YO’NALISH.

<< operatori o’z bitlaridachapga yurishni ta’minlaydi.Bu holda chap razryaddagi bitlar bir qismi chegaradan chiqadi va yo’qoladi.Shundan keyin o’ng pozisiyalar nollar bilan to’ldiriladi.

>> operatori Java tilida o’ngga yo’nalishni bildiradi.U chap operandning bitlarini o’ng tomonga joylashtiradi.Chap operandning bitlari o’ngdagi so’zlari oxirigacha borsa o’z-o’zidan yo’qoladi.Siljish paytida o’ngdagi razriyadlar o’rnini avvalgi belgilar razriyadi egallaydi.Buni belgilar razriyadining kengaytirilishi deb aytiladi.

```
class HexByte {
static public void main(String args[]) {
charhex[]= {'0','1,'2','3','4','5','6','7','8','9','a','b','c','d','e','f};
byte b = (byte) 0xf1;
System.out.println(“b = 0x” + hex[(b >> 4) & 0x0f] +  hex[b & 0x0f]); } }
```

Pastda shu programmani natijasi ko’rsatilgan.

```
C:\> java HexByte
b = 0xf1
```

BELGISIZ O’NGGA SILJISH.

Ko’pincha o’ngga siljishda belgilar razriyadining kengaytirilishiga yo’l qo’ymasdan chapdagi razriyadlar bo’shatilib o’rni nollar bilan to’ldirilishi talab etiladi.

```
class ByteUShift  {
static public void main(String args[]) {
char hex[] ={'0','1’,'2','3','4','5','6','7','8','9','a','b','c','d','e','f’};
byte b = (byte) 0xf1;
byte c = (byte) (b >> 4);
byte d = (byte) (b >> 4);
byte e = (byte) ((b & 0xff) >> 4);
System.out.println(" b = 0x" + hex(b >> 4) & 0x0f] + hex[b & 0x0f]);
System.out.println(“ b >> 4 = 0x" + hex[(c >> 4) & 0x0f] + hex[c & 0x0f]);
System.out.println(“b >>> 4 = 0x" + hex[(d >> 4) & 0x0f] + hex[d & 0x0f]);
```

System.out.println(“(b&0xff)>>4=0x" + hex[(e >> 4) & 0x0f] + hex[e & 0x0f]);

} }

Bu misol uchun b o’zgaruvchili erkin musbat sonni ko’rsatish mumkin,bunda biz 0xfl o’n oltilik sondan foydalandik.O’zgaruvchi natijada b belgili harakat bilan o’zlashtiriladi to’rt razryad o’ngga. Kutilganidek belgili razryadning kengayishi 0xfl ni 0xFF ga oylantirilishiga olib keladi.So’ngra d o’zgaruvchi belgisiz b harakatini to’rt razryad o’ngga suradi.d natijasida 0xof natijasida yana 0xff ni olishimizni ham kiritish mumkin.Bu – belgili razryadni kengayishi natijasi b o’zgarganda ,avtomatik bajarilganda int o’ngga harakatlanish oldidan bajariladi. Natijada e o’zgaruvchisi uchun kerakli natijaga erishishimiz mumkin – ahamiyat 0xof.Buning uchun o’ngga harakatlanishdan oldin b o’zgaruvchini og’zaki ko’paytirish 0xff maskasiga kerak.

Bunday yo’l bilan tozalash katta razryadlarni avtomatik ko’paytirish tipi bajariladi.

Buning natijasida belgisiz o’ngga harakat qilishga zarurat qolmaydi,chunki biz belgili bitning AND operasiyasidan keyingi holatni bilamiz.

C: \> java ByteUShift

---

b = 0xf1

b >> 4 = 0xff

b >>> 4 = 0xff

b & 0xff) >> 4 = 0x0f

O’ZLASHTIRISHNING BULLI OPERATORLARI.

Arifmetik operatorlar kabi barcha bitli operatorlarga yaqin formalari mavjud.U avtomatik tarzda chap operandning operasiya natijalarini o’zlashtiradi.

Keyingi misolda bir nechta butun sonlar ko’rsatilgan,ular bilan operatorlar yordamida har xil operasiyalar o’tkazish mumkin.

class OpBitEquals {

public static void main(String args[]) {

```
int a = 1;
 int b = 2;
int c = 3;
a |= 4;
b >>= 1;
c <<= 1;
a ^= c;
System.out.println("a = " + a);
System.out.println("b = " + b);
System.out.println("c = " + c);
} }
```

Programma natijasi quyidagicha:

```
C:\> Java OpBitEquals
a = 3
b = 1
c = 6
```

MUNOSABAT OPERATORLARI.

Ikki mohiyatni tenglashtirish uchun Java da munosabat va tenglikni tasvirlovchi operatorlar to'plami mavjud.Bu operatorlar ro'yxati jadvalda ko'rsatilgan.

OPERATORLAR	NATIJA
= =	Tenglik
! =	Teng emas
>	Katta
<	Kichik
> =	Katta yoki teng
< =	Kichik yoki teng

Istalgan tipning ahamiyati shundaki,butun va kasr sonlar,belgilar,silkalarni tekshirish operatorni qo'llab tenglikka (= =) va tengsizlikka (!=) tenglashtirish mumkin.

Java tilida C va C++ dagidek tenglikni tekshirish (= =) ketma ketligida tushunilishiga diqqat qiling.Bitta (=) belgisi bu o’zlashtirish operatori.

MANTIQIY OPERATORLAR.

Mantiqiy operatorlar pastda keltirilgan jadvalda ular haqidagi hisobotlar ,Boolean tipidagi operandlar bilangina kesishadi.

Operator	Natija	Operator	Natija
&		&=	
|		=	
^		^=	
||		= =	
&&		!=	
!		?:	

Mantiqiy operatorlar harakati natijasida natijasida har xil kombinatsiya natijasida operandlar ahamiyati jadvalda ko’rsatilgan.

A	B	OR	AND	XOR	NOT A
false	False	False	False	false	true
True	False	True	False	true	false
false	True	True	False	true	true
True	True	True	True	false	false

Pastda ko’rsatilgan programma bizga tanish bo’lgan BitLogik misolini amaliyotda to’liq takrorlaydi.Faqat bus afar biz logic bulevalar ahamiyati bilan ishlaymiz.

```
class BoolLogic {
public static void main(String args[]) {
boolean a = true;
boolean b = false;
boolean c = a | b;
boolean d = a & b;
boolean e = a ^ b;
boolean f = (!a & b) | (a & !b);
```

```
boolean g = !a;
System.out.println(" a = " + a);
System.out.println(" b = " +  b);
System.out.println(" a|b = " + c);
System.out.println(" a&b = " + d);
System.out.println(" a^b = " + e);
System.out.println("!a&b|a&!b = " + f);
System.out.println(" !a = " + g);
} }
C: \> Java BoolLogic
a = true
b = false
a|b = true
a&b = false
a^b = true
!a&b|a&!b = true
!a = false
```

MANTIQIY IFODANI TEZKOR BAHOLASH OPERATORLARI.

(short circuit logical operators)

Mantiqiy operatorlar to'plamiga ikki qiziqarli qo'shimcha mavjud.Bu mantiqiy ifodaning tezkor baholashida xizmat qiluvchi AND va OR operatorlarining al'ternativ taklifi hisoblanadi.Biz bilamizki agar birinchi OR operatorining operandi true ahamiyatiga ega bo'lsa,unda ikkinchi operatordan mustaqil ravishda natijasida true kattaligida bo'ladi.AND operatorida birinchi operand false bo'lsa u ikkinchi operandning natijasiga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi,u doim false ga teng bo'ladi.

Agar siz && va // operatorlari o'rniga & va / formalarini qo'llasangiz, unda Java da o'ng operandning mantiqiy ifodasining bahosini ishlab chiqarmaydi.

TERNARLI OPERATORLAR. if-then-else

if-then-else operatorning umumiy ko’rinishi.

Ifoda 1: Ifoda 2: Ifoda 3:

Birinchi operand sifatida – ifoda 1 – bunda xoxlagan ifoda qo’llanilishi mumkin,uning natijasi Boolean turi hisoblanadi.Agar natija true ga teng bo’lsa unda ikkinchi operand tuzgan operator bajariladi bu esa ikkinchi ifoda deb aytiladi.Agar birinchi,operand false gat eng bo’lsa unda uchinchi operand – uchinchi ifoda – bajariladi.

Ikkinchi va uchinchi ya’ni ikkinchi va uchinchi ifodalar bir turning ahamiyatini qaytarishlari va void turiga ega bo’lmasliklari kerak.

```
class Ternary {
public static void main(String args[]) {
int a = 42;
int b = 2;
int c = 99;
int d = 0;
int e = (b == 0) ? 0 : (a / b);
int f = (d == 0) ? 0 : (c / d);
System.out.println("a = " + a);
System.out.println("b = " + b);
System.out.println("c = " + c);
System.out.println("d = " + d);
System.out.println("a / b = " + e);
System.out.println("c / d = " + f);
} }
```

Bu programmani ishlatib quyidagi natijani olasiz:

```
C: \>java Ternary
